

МОHIMBEGIM – VAFO VA SADOQAT TIMSOLI

Hayitov Shavkat Ahmadovich

Filologiya fanlari doktori

Barotova Xurshida Jalolovna

Toshkent viloyati, Nurafshon shahar

Xalq ta'limi bo'limiga qarashli

1- IDUM ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning aql va donishda naziri yuq, sohibjamol, sadoqatda tengsiz ayoli Mohimbegim ta'rif-u tavsifi xususida bir qancha ma'lumotlar bayon qilinadi. Mohimbegimning Mirzo Boburga sadoqati hamda Boburmirzoning suyukli rafiqasi Mohimga hurmat ehtiromi aks etgan jumlalar tahlilga tortib izohlanadi.

Kalit so'zlar: Oqila, xilqat, shijoat, nafosat, ehson, Kobul, muruvvat, ehtirom, ulug'vorlik, tilovat, hurmat.

Ayol! Haq taolo tomonidan yaratilgan buyuk xilqat! Ayol nafosat va go'zallik dunyosining rahnamosi. Ayol bor ekanki, butun olam charog'on va munavvar. Ayol bir qo'lida beshikni tebratsa, bir qo'lida dunyoni tebratadi. Shuning uchun ham asrlar davomida ayol xilqatiga mansub nafosat egalari azal-azaldan ardoqlanib kelingan. Ayol oilaning chirog'i, farzandlar tarbiyalovchisi hamda insoniyat silsilasini davom ettirish uchun onalik baxti va mas'uliyati berilgan zotdir. Qur'oni Karimda bunday deyiladi: "Uning alomatlaridan (yana biri) – sizlar (nafsni qondirish jihatidan) taskin topishingiz uchun o'zlariningizdan juftlar yaratgani va o'rtangizda inoqlik va mehribonlik paydo qilganidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan kishilar uchun alomatlar bordir".

Alloh Taollo Qur'oni Karimda o'zining mo'min bandalarini vasf qilar ekan, ularni shunday deb maqtaydi: "Ular : "Ey Robbimiz, O'zing bizga jufti halollarimizdan va surriyodlarimizdan ko'zimiz quvonadigan narsa hadya et hamda bizlarni taqvodorlarga yo'lboshchi et" (Furqon surasi, 74-oyat).¹

Muqaddas Islom dinimiz ayolning iffati, sharafi, haq-huquqlarini to'laligicha ta'minlab berdi. Islom dini bundan o'n besh asr ilgari ayolni yuksak martabalarga ko'tardi. Bu ezgu ibrat faqat islom ummatiga emas, balki butun insoniyatga yuksak namuna bo'ldi. Qur'oni Karim oyatlarida shunday deyiladi: "Ayollar uchun (belgilangan huquqlar) o'z me'yorida erkaklar huquqi bilan tengdir" (Baqara surasi 228-oyat). Yoki, "Ular bilan totuv turmush kechiring" (Niso surasi 19-oyat). Payg'ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vasallam esa bunday deganlar: "Alloh kimga soliha bir turmush o'rtoq (ayol) nasib qilgan bo'lsa, dinining yarmida unga yordam beribdi. Qolgan yarmi xususida Allohdan qo'rqsin (taqvo qilsin)!"² Haqiqatdan ham, yaxshi xotin – oilaning davlati va baxti hisoblanadi. Qaysiki erga vafoli va sadoqatli mahbuba uchrabti, o'sha erkakning yarim dini obod bo'libdi. Hazrat Navoiy ta'birlari bilan aytganda: "Muvofiq tushsa kadbonu, davlat va jamiyatg'a bo'lmoqdurur hamzonu. Uyning oroyishi andin va uylukning osoyishi andin. Jamoli bo'lsa marg'ub va salohi bo'lsa jong'a matlub. Oqila bo'lsa, ro'zg'org'a andin saloh va intizom va maosh asbobic'a andin tartib va saranjom. Bu nav' juft kishig'a qovushsa, balki mundoq kamgorliq ilikka tushsa, nihoniy g'am-u mehnatda hamroz va hamdaming bo'lg'ay va maxfiy va pinhon dard-u mashaqqatg'a damsoz va marhaming bo'lg'ay".³ Ushbu pandnomaning mazmuniga yaxshilab e'tibor qaratsak, kimki oqila va dono, husnli va xushmuomala jufti halol bilan baxtga erishsa, g'am va kulfatda sirdoshga,

¹ Abdulaziz Mansur tarjimasi. Qur'oni Karim. (O'zbekcha tafsir) . – Toshkent: "Tafsiri Hilos" matbaa uyi , 2016-yil. – 483 bet, – 156-163- betlar.

² Абу Абдулоҳ Мұхаммад ибн Исмоил ал-Бухорий “Ал-жоми ас- сахих”. 4 жилдлик. “Қомуслар Бош таҳририяти”, Тошкент 1995. 3-жилд. 560- бет. – 175-бет.

³ Навоий А. Асарлар. 15 томлик, 13-том. Махбубул-кулуб. – Ташкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашиёти, 1966. – 242 бет, – 23-бет.

oshkor va pinhoniy dard-alamda ham dardkashga ega bo'ladi. Xuddi shunday xislatlarni o'zida jamlagan soliha juftga ega bo'lgan temuriy hukmdor ,shubhasiz, Mirzo Boburdir. Bobur Mirzo nikohidagi Mohimbegim yuqorida aytilgan shu xislatlarni o'zida mujassam etgan, mahbubiga suykli yor edi. Mohimbegim Mirzo Boburning uchinchi ayoli bo'lib, o'zidagi vafo va sadoqat tuyg'ulari bilan Bobur qalbidan joy egallagan ,shu sababdan, u saroyning bosh xonimi darajasiga musharraf bo'lgan. Bobur 1506-yilda Sulton Husayn Mirzo vafotidan so'ng Xuroson poytaxti Hirotg'a ta'ziya tufayli ziyoratga borganda Mohimbegim bilan turmush quradi. U Boburning siyosiy ishlarida, shuningdek, podshoh xonadoni bilan aloqlarda faol ishtirok etgan. U o'ta aqli va chiroyli ko'rinishga ega edi. Begim eriga bo'lgan vafo va sadoqat tuyg'ulari bilan har qadamda Boburmizzoga hamroh bo'lib, Badaxshon va Movarounnahrga borib, uning yonida turdi. U podsho xonadonining bosh xonimi edi. Er-xotinning birinchi farzandi Humoyun dunyoga kelganidan so'ng taxt vorisi deb e'lon qilinadi. Bobur hatto boshqa ayoli dunyoga keltirgan farzandlarining tarbiyasini ham Mohimbegimga ishonardi. Mohimbegim zukko, kamtarin va sabrliligi bilan ajralib turardi. U o'g'li Humoyun Mirzoni nihoyatda zehnli, jasur va mard etib tarbiya qilgan. Shu sababli Boburning hurmatiga, cheksiz e'tiboriga sazovor bo'lgan edi. Boburning kichik ayoli – Dildor og'acha dunyoga keltirgan ikki farzandi – Hindol va Gulbadanbegimni ham Mohimbegim tarbiya qilishini istagan. Mohimbegimning yana to'rt farzandi tug'iladi va afsuski, hammasi go'dakligida vafot etadi. Ular Barbul, Mehr Jahon, Esan Davlatbegim va Foruq edilar.⁴ Bu haqda Bobur shunday deydi: "Aning birla tuqqonlardin ul zamong'acha bir o'g'ulkim bor edi, andin kichik va yana uch qiz. Mehrjon va yana ikki qiz kichikligida turmadilar. Va bir tuqqon havasi xeyli bor edi. Ul zamonda Dildor og'achaning bo'yi xeyli og'ir edi. Men der edimkim, ne bo'lg'ay edi. Hazrat volida

⁴ Beveridge, Annette. Life and writings of Gulba dan Begam (Lady Rosebody), Calcutta Review. Calcutta: University of Calcutta, 1898 — 347 bet. (Sarqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi № 2814 /09-876 raqamli tarjima matndan olindi. G'ofurjon Sotimov inglizchadan tarjimasi)

dedilarkim, agar Dildor og'acha o'g'ul tug'sa, olib asrasam nechukdur? Men dedim: Bisyor xo'btur". Shul orzu-umid bilan suykli ayoli Mohimbegim Boburmizzoga xat yo'llaydi. "Boburnoma"ning 1509-1510-yil voqealariga diqqat qaratsak, Bobur Mirzo Hindistonning Panjko'rag'a va Badur kentlariga yurganda Mohimdan ushbu mazmundagi xat keladi "...xohi o'g'ul bo'l sun, xohi qiz mening baxt-u tolem – manga bering, man farzandchilay saxlay".⁵ O'zidagi ijobiy fazilatlari bilan Boburmirzoning sadoqatiga , fazl-u karamiga sazovor bo'lgan Mohim turmush o'rtog'idan ushbu mazmundagi xat oladi: "Odina kuni oyning yigirma oltinchisida ushbu yurda erkonda, Hindol Mohimg'a berilg'ay mazmunida xatlar bitib, Yusuf Ali Rikobdor bila Kobulg'a yuborildi. Hanuz Hindol tug'ilmaydur edi".⁶ "Boburnoma"ning keyingi sahifalarini o'qir ekanmiz, farzand jinsini aniqlash uchun qiziq bir rasm borligi diqqatimizni tortdi. Dildor og'acha homiladorlik paytida undan qizmi yoki o'g'il farzand dunyoga kelishini oldindan bilish maqsadida Bobur nikohidagi va haramidagi ayollar quyidagi usulda fol ko'rishadi. Emishki, homila o'g'il bo'ladimi, qizmi deb, ikki qog'ozda biriga Ali yo Hasan yozib, yana birida Fotima bitib, ikki yumaloq loy ichiga qo'yib, u loylarni bir kosa suv ichiga soladilar. Har qaysi oldin ochilsa, o'shandan dalil kuzatadilar. Er kelsa o'g'il bo'lur, qiz kelsa qiz bo'lur. "Fol qildilar, er keldi. Chun mujda bo'ldi, aning yuzidin-o'q xat bitib yubordik. Necha kundin so'ngra er o'g'ul tengri karam qildi... otini Hindol qo'ydilar". Shundan so'ng Dildor og'acha dunyoga keltirgan Hindol Mirzo tarbiyasi Boburmirzo tomonidan Mohimbegimga topshiriladi. Mohimbegim nafaqat Hindol Mirzoni o'z tarbiyasiga olgan balki, Hindol Mirzoning tug'ishgan singlisi Gulbadanbegimni ham o'zi tarbiyalab voyaga yetkazgan. Mohimbegimdan yaxshi tarbiya olgan Gulbadanbegim ham onasi Mohimbegim singari zukkolikda tengi yo'q, fahm-farosatda yetuk bo'lib ulg'ayadi. O'z navbatida, Gulbadanbegim ham o'zining akasiga bag'ishlab yozgan "Humoyunnoma" asarida Mohimbegimni alohida hurmat

⁵ Ko'rsatilgan kitob – 376- 377-bet.

⁶ Bobur. Z.M. Boburnoma (V. Rahmonov, K. Mullaxo'jayeva tabdili) . – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 366 bet. – 215-bet.

va ehtirom ila tilga oladi. Bobur mirzo Mohim begimga boshqacha mehr qo‘yganligini, uning bu muhabbatini hatto payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning Hazrati Oyisha (r.a.)ga bo‘lgan sevgilari bilan qiyoslashashishlarini aytib o’tadi.

Haqiqatdan ham, Mohimbegim o‘zidagi barcha ijobiylar xislatlar ila temuriy hukmdor Mirzo Bobur saroyidagi vafo va sadoqat timsoliga aylangani hech shubhasiz. Uning "Vaqoe", Gulbadanbegimning "Humoyunnoma", Hasanxo‘ja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob", Xondamirning "Habib us-siyar", Uilyam Erskinning "Bobur Hindistonda" nomli asarlarining bir necha o‘rinlarida Boburmirzo va Mohimbegimning sof va samimi tuyg‘ulari, Mohimbegimning yuksak hurmatga ega malika bo‘lganining guvohi bo‘lamiz. "Boburnoma" sahifalarida 1528-yilda Mohimbegimning Kobuldan Hindiston safariga otlangani haqida ma'lumotga ega bo‘lamiz. "Vaqoe"da bu haqda "...seshanba kuni oyning oltisida Qarochaning Hindustoniy chokari, Mohimning Qarochag'a bitilgan farmonini olib keladur emish. Mening yurtda o‘z iligim bila bitilgan parvona yo‘suni bila⁷ Lohur va Behra va ul navohidag‘ilarni badraqa tilabdur".⁸ Voqealardan budurkim, Mohimbegim ushbu xatida Boburning xos navkari, Qarochadan Lohur va Bihira atroflarini yaxshi biladigan yo‘lboshlovchi yuborishini so’raydi. Shundan so‘ng Mohimbegim Gang yoqasiga yetib to’xtaganda Mohim yonidan uning kelish xabarini yetkazish uchun Shahrakbek podshoh Bobur yoniga keladi. Bu haqda Bobur: "...bir kuruhcha yo‘l kesib, Gang yoqasig‘a tushildi. Shahrak bekkim, Mohim qoshidin Gangga avval kelgon yurtga kelib edi, ushbu kun ushbu yurtdin ruxsat berildi"⁹, – deya "Vaqoe"da izohlaydi. Mohimbegim Aligarxga yetib borgach, Bobur unga uch otliq bilan ikki ot jo‘natadi. Boburning o‘zi uni kutib olish uchun Aligarxgacha borish niyatida otning egarlanishini kutmay, piyoda yo‘lga chiqqan. Bu haqda Boburning qizi Gulbadanbegim "Huyunnoma" asarida quyidagicha tasvirlaydi: "...okam (onam) Mohimbegim Kobuldan Hindistonga keldilar. Bu haqir (Gulbadan)

⁷ Izoh: hukmdorning qo‘l ostidagi amaldorlarga yoziladigan xati.

⁸ Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: "Yangi asr avlod", 2015. – 699 bet. – 626-bet. Keyingi o‘rinlarda "ko‘rsatilga kitob" tarzida beriladi.

⁹ Ko‘rsatilgan kitob – 629-bet.

ular bilan birga opa-singillardan oldin kelib podshoh otamning xizmatlariga hozir bo'ldim. Onam Ko'li Jalolga yetganlarida podshoh hazratlari ikkita taxtiravon bila uchta otliq yubordilar. Ko'ldan Agra tomonga jadal jo'nadilar. Podshoh hazratlari Ko'li Jaloliyga borib kutib olaman degan niyatları bor edi. Namoz shom payti bir kishi kelib: "Hazratlarini (Mohim) ikki kuruh (to'rt mil) joyda qoldirib keldim", – dedi. Otam hazratlari ot kelturguncha ham sabri chidamay, piyoda yo'lga tushdilar.¹⁰

Mohim Bobur bilan yo'lda uchrashadi. To'qqiz askar, ikkita ot va podsho jo'natgan qo'shimcha ikkita xizmatkor va Kobuldan olib kelingan bir foytun va Mohim Beginning yuzga yaqin xizmatkorlari yaxshi otlarga minib yo'lda davom etishgan. Mohimbegim Agrada uch oy turgach, Bobur bilan Dholpurga jo'naydi.

Mohimbegim katta malika sifatida Boburiylar imperiyasi taxtida Boburning yonida o'tirish sharafiga muyassar bo'lgan yagona malika edi. U qudratli, xushsur'at va ko'rakam ayol edi. Bobur uni sultanat ishlaridan uzoq saqlamagan. Shunisi e'tiborga loyiqliki, Bobur o'zining sevimli rafiqasi Mohimbegim bilan chiqargan har bir farmonini maslahat qilardi. Humoyun kasal paytida Bobur uning atrofida aylanib, duo qiladi. Shuningdek, u Humoyunni sevgan rafiqasi Mohimning o'g'li bo'lgani uchun sevishini aytgan: „Boshqa o'g'illarim bo'lsa-da, men hech kimni sizning Humoyuningizni yaxshi ko'rgandek sevmayman. Men bu mehribon farzandning ko'nglida bo'lishini va uzoq umr ko'rishini istayman va men sultanatni boshqalar uchun emas, balki unga tilayman, chunki uning tengi yo'q“,¹¹ – degan edi. Mirzo Bobur kasallanib vafot etganidan so'ng o'g'li Humoyun yigirma uch yoshida taxtga o'tirdi. Sadoqatli rafiqqa Mohimbegim eri Boburmirzo xotirasiga atab uning haqiga duo qilar va kuniga ikki marta sadaqa tarqatardi. Ertalab bir ho'kiz, ikki qo'y va besh echki, asr namozи vaqtida esa beshta echki so'yib ovqat qilib xalqqa tarqatishardi. U buni ikki yarim yil davomida o'z mulkidan bergen. Gulbadanbegim bu haqda: "bu

¹⁰ Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2016. – 117 бет. – 19- бет.

¹¹ Ko'rsatilgan kitob -674-bet.

taomlar okamning mol-dunyosidan mozor boshiga ehson qilinardi",¹² – deya aytib o'tadi. Bobur betoblik chog'ida sadoqatli ayoli Mohimbegimga Gulruhbegim va Gulchehrabeginning nikohini to'yini o'tkazish vazifasini qo'ydi. Mohimbegim o'g'li Humoyun hokimiyatini muvaffaqiyatli targ'ib qilishda ham muhim rol o'ynadi. U Podshoh Begim bo'lishni davom ettirdi va o'limiga qadar erining qabrini obod qilish ishlarida qatnashdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абу Абдуллоҳ Мұхаммад ибн Исмоил ал-Бухорий “Ал-жоми ас- сахих”. 4 жилдлик. “Қомуслар Баш таҳририяти”, Тошкент 1995. 3-жилд. 560- бет. – 175- бет.
2. Abdulaziz Mansur tarjimasi. Qur'oni Karim. (O'zbekcha tafsir) . – Toshkent: "Tafsiri Hilol" matbaa uyi , 2016-yil. – 483 bet, – 156-163- betlar.
3. А. Навоий Асарлар. 15 томлик, 13-том. Маҳбубул-қулуб. – Тошкент: Faфур Fулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1966. – 242 бет, – 23-бет
4. Beveridge, Annette. Life and writings of Gulba dan Begam (Lady Rosebody), Calcutta Review. Calcutta: University of Calcutta, 1898 — 347 bet. (Sarqshunoslik istituti qo'lyozmalar fondi № 2814 /09-876 raqamli tarjima matndan olindi. G'ofurjon Sotimov inglizchadan tarjimasi)
5. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2015. – 699 bet.
6. Bobur. Z.M. Boburnoma (V. Rahmonov, K. Mullaxo`jayeva tabdili) . – Toshkent: "O`qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 366 bet.
7. Гулбаданбеким. Ҳумоюннома. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2016. – 117 бет.

¹² Гулбаданбеким. Ҳумоюннома. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2016. – 117 бет. – 30- бет.